

SURXONDARYO O'ZBEK SHEVALARIGA DOIR AYRIM PAREMALAR TAHLILI

Egamberdiyeva Muxlisa Sobir qizi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti 2 - bosqich talabasi.

Murojaat uchun Tel: 94-551-75-04.

muxlisasobirovnam@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15383753>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Qiziriq tuman aholisi nutqidan yig'ilgan maqollar tahvilga tortilgan. Mazkur barqaror birliklar (asosan maqollar) guruhlarga ajratilib, leksikografik material sifatida nutqda qo'llanilishiga ko'ra qiyosiy tasniflandi. Mazkur tasnif lug'at hamda korpus bazasida kerakli maqolga murojaatni osonlashtirib, tushunarli talqinga yo'naltiradi. Jumladan, maqolada adabiy tilda (izohli lug'atlarga kiritilgan) maqollar bilan mahalliy shevada qo'llanuvchi maqollar taqqoslandi, ularning o'xshash va farqli jihatlariga lingvistik sharh berildi.

Kalit so'zlar: qipchoq lahjasining janubiy o'zbek "j"lovchilar guruhi, "y"lovchi o'zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar) hamda ikki tilda so'zlovchi shevalarda barqaror birliklar.

Abstract. This article analyzes articles collected from the speeches of residents of the Kyzyrik district of the Surkhandarya region. These stable units (mainly proverbs) were divided into groups and comparatively classified according to their use in speech as lexicographic material. This classification makes it easier to refer to the required article in the dictionary and corpus database and leads to a clearer interpretation. In particular, the article compares articles used in literary language (included in annotated dictionaries) with articles used in local dialects, and gives linguistic explanations of their similarities and differences.

Keywords: group of southern Uzbek "j" dialects of the Kipchak dialect, Uzbek dialects of the "y" dialect (dialects of the Qarluq dialect) and stable units in bilingual dialects.

Аннотация. В данной статье анализируются статьи, собранные из выступлений жителей Кызырикского района Сурхандарьинской области. Эти устойчивые единицы (преимущественно пословицы) были разделены на группы и сравнительно классифицированы по их употреблению в речи в качестве лексикографического материала. Эта классификация облегчает обращение к нужной статье в словаре и корпусной базе данных и направляет ее к однозначному толкованию. В частности, в статье сравниваются паремиологические единицы, употребляемые в литературном языке (входящие в аннотированные словари), с единицами, употребляемыми в местных диалектах, и даются лингвистические пояснения их сходства и различия.

Ключевые слова: южноузбекская группа «дж»-кающих кыпчакского диалекта, узбекские диалекты «у»-кающих (диалекты карлукского диалекта) и устойчивые единицы в двуязычных диалектах.

Kirish

Ma'lumki, shevalarimiz tadqiqi tarixi XX asrning 20-yillariga borib taqaladi va bugungacha davom etib kelmoqda. Negaki shevalarni tadqiq etishga qiziqishning umumiyligi sabablari til istiqboliga aloqadordir. Biz milliy tilimizni ham adabiy til, ham sheva, ham milliy til ma'nolarida tushunamiz. Adabiy tilning o'ziga xos taraqqiyot bosqichi borligi, shubhasiz, aniq, ammo shevalarimiz, lahjalarimizning taraqqiyoti va rivojlanish masalasi bahslidir.

Sheva tadqiqiga bag'ishlangan ishlar yil sayin zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti soyasida qolib ketayotgani sir emas. Mustaqillik yillarda soha rivojiga xizmat qiluvchi sezilarli tadqiqotlar bajarilgan. Biroq bu tadqiqotlar salmog'i o'zbek shevalarini to'laqonli tekshirishga va ularning lisoniy tabiatini aniqlashga imkon bergani yo'q.

Adabiyotlar tahlili va metadalogiya

O'zbek tili turkiy tillar orasida eng qadimiy tillardan biri bo'lib, sheva va dialektlarga juda boy til. Har bir viloyat, har bir tuman, har bir qishloqning so'zlashuv uslubi o'zining shevaviy xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. O'zbek tilidagi shevalar va ularning xususiyatlari, tasnifi ustida V.V.Radlov, Ser Ali Lapin, I.I.Yudaxin, Y.D.Polivanov, G'ozi Olim Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, B.To'ychiboyev, B.Hasanov, S.Ibrohimov, A.Ishayev, S.Rahimov kabi bir qator olimlar ilmiy ish olib borishgan. O'rganilmagan sheva va dialektlarimiz, ayniqsa lingvogeografik va monografik planda o'rganilmagan ishlar juda ko'p. Ular xalq orasida yashab kelmoqda. Shevalarimizni o'zligimizni, qadriyatlarimizni namoyon qiluvchi o'lmas va tunganmas xazina desak mubolag'a bo'lmaydi.

Muhokama va Natijalar

Maqollar bu xalqning madaniyati, ma'rifati, madaniy saviyasi hamda qadriyatlarini o'zida birlashtirgan, jamlagan kichik matnlardir. Xuddi shu ma'noda dialektal matnlar ham doim e'tiborda bo'lган. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk" asarida [7] ham bejizga maqollar uchramaydi. Ajdodlarimiz madaniyati, madaniy qadriyatlarini bizgacha yetkazib kelishda maqollarning o'rni va ahamiyati kattadir. Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha sheva vakillarining so'zlashuvi bir-biridan go'zal va rang-barangdir. Shuningdek, ayniqsa, Janubiy Surxondaryo sheva vakillarining so'zlashuvi ham o'ziga xos. D. Polivanov klassifikatsiyasida 3-dialekt, qipchoq lahjasining beshinchi tipidagi janubiy o'zbek "j"lovchilar guruhiya mansubligi ifodalangan. A.K.Borovkovning tasnifida Surxondaryo o'zbek shevalari Shayboniy o'zbek yoki "j"lovchilar dialekti deb ko'rsatiladi. G'ozi Olim Yunusov tasnifida "o'zbekqipchoq" lahjasiga kiritilgan. S.Rahimov shu tasniflarga tayanib Surxondaryo o'zbek shevalarini quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

1. "j"lovchi o'zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
2. "y"lovchi o'zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar);
3. Ikki tilda so'zlovchi shevalar [8].

Bu tasnifga 4-tur "a"lovchi yoki "o"lovchi o'zbek shevalarini kiritsak bo'ladi.

"o(a)nor", "o(a)hmoq", "a(o)lma", "xa(o)la", "ha(o)zir" va boshqalar.

Tadqiqot davomida Mardayeva Malika Yo'ldoshevna (1966-yil 9-avgustda tug'ilgan. Qiziriq tumani 30-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchi), Imomaliyeva Bibinor Ahmedovna (1953-yil 2-fevralda tug'ilgan. Istara mahallasidagi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlagan. Hozirda nafaqada), Mustafayev Turdimurod Ismatovich (1963-yil 12-iyulda tug'ilgan.

Qiziriq tumani "Bog'bonlar yurti" mahallasida yashaydi. "Termiz universiteti" gazetasi bosh muharriri), Mamatmurodov Mamayusuf Qurbonovich (1963-yil 7-noyabrda tug'ilgan.

Qiziriq klassterida bosh hisobchi) va boshqa sheva axborotchilaridan yozib olingen dala amaliyoti davomida bir qator muhim ma'lumotlarga ega bo'ldik. Qiziriq tumani vohaning janubiy hududidagi tuman bo'lib, aholining etnik tarkibini Qo'ng'irot urug'iga mansub turli daha vakillari tashkil qiladi. Hozirda tuman tarkibida 31 ta mahalla mayjud. Biz ulardan Istara, Takiya, Karmaki, So'fi qishloq, Qishloqozon, Rabotak, Yetimqum, Gilambob, Oqjar, Xomkon, Qiziltom, Kiyik kabi qishloqlari aholisidan axborot yig'dik.

Hududiy jihatdan tuman cho'l mintaqasi hisoblanadi. Tub aholi bu yerni ko'chib kelib o'zlashtirgan. "Qush uchsa bo'lganligi haqida dialektal suhabatlar jarayonida tuman aholisi ma'lumot berishadi.

A.Omonturdiyev va B.Rahmonovlarning hammualliflikda tuzgan "Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug'ati"da [1] Surxondaryo viloyatining turli tumanlari aholisidan yig'ilgan maqollar joy nomlari kesimida tartiblangan bo'lib, Qiziriq tumanidagi xalq shevasida uchrovchi maqollar lug'atda mavjud emas.

Professor F.Abdullayev o'zbek shevalarini tadqiq qilishda dialektal matnlarga asoslanib ish ko'rishni shevalar tadqiqidagi samarador usul deb biladi[4, 5]. Binobarin, dialektal matnlarning bir turi dialektal maqollar bo'lib, har bir maqol yirik asar ma'nosini ifodalashi mumkin. Quyida berilgan dialektal maqollar xuddi shu ma'noda jamlangan va saralab olingan.

Biz Qiziriq shevasi maqollarning dialektal xususiyatlarini saqlagan holda ham adabiy shaklini, ham dialektal shaklini berishga harakat qildik hamda to'plangan maqollarni quyidagicha guruhladik:

1. Dialektal nutqdagina qo'llanadigan maqollar.
2. Ham shevada, ham adabiy tilda qo'llanadigan maqollar.
3. Adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noda qo'llanuvchi maqollar.
4. Arxaik yoki eskirgan maqollar.

Oxirgi tur paremalarni izohlash va tavsif qilish zaruriyati mavjuddir.

Shevada qo'llanadigan maqollar

*Otangni ko'rdim Ahmad poriq,
Enangni ko'rdim tovoni joriq.*

Otangni ko'rdim Ahmad рөсөнq, Энәңгөнъ ко'rdim tovoni јөрөнq.

Maqolda Энә so'zi ona ma'nosida kelgan. Qiziriq shevasida *ona* so'zi әнә, *онә*, *ая* shakllarida qo'llanadi. "j"lovchi sheva vakillari nutqida "y" tovushi "j"ga almashinib talaffuz qilinadi.

Xulosa

Xalq og'zaki durdonasi sifatida bu kabi xalq donishmandligining, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan noyob meros, keksa avlodlarning bemisl xazinasini lingvistik planda o'rganish juda ham dolzarbdir. Zotan, avlodlar almashinuvida til va madaniyat, tafakkur tarzi tamoyillarini yortitishda paremalarning ajralmas o'rni mavjud.

Ayniqsa, o'zbek shevalari leksikasi bilan bir qatorda paremalarni ham leksikografik jihatdan tadqiq etish nafaqat o'zbek dialektologiyasi, balki leksikografiya, korpus lingvistikasi uchun ham g'oyat muhimdir.

REFERENCES

1. Omonturdiyev A., Rahmonov B. "Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug'ati". – Toshkent, "Ilm Ziyo Zakovat", 2019.
2. Fayzullayev B., To'ychiyev A. Dialektologik amaliyot. – Jizzax, 2004.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004.
4. Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent, 1960.
5. Abdullayev F. O'zbek tilining o'g'uz lahjasи. – Toshkent, "Fan", 1978.
6. "Kuntug'mish" dostoni. – Toshkent, "G'afur G'ulom", 1975.
7. Mahmud Qoshg'ariy. Devon-u lug'atit turk. – Toshkent, "Fan", 1961.

8. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari. Monografiya. –Toshkent: Fan, 1985.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati, 3,4,5-jildlari. –Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2007.
10. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, "G'afur G'ulom", 1989